


# Milliy suvenirlar festivali

Image not found or type unknown



## Milliy suvenirlar festivali

28 oktabr kuni yurtimizning barcha hududlarida Milliy suvenirlar festivali bo'lib o'tdi. Surxondaryodagi tadbirlar "Termiz" davlat muzey -qo'riqxonasida (sobiq viloyat madaniyat va tarix muzeyi) tashkil etildi.

Tadbir dasturidan folklor-etnografik guruhlar va raqs jamoalari jo'rligidagi ko'rgazma-yarmarkalar, tanlovlar, hunarmandlarning mahorat darslari o'rin oldi.

Ta'kidlash joiz, mahalliy hunarmandlar yaratgan milliy suvenirlar savdosini yo'lga

qo'yish hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, hunarmandlar bandligini ta'minlashga, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatishga yordam beradi.

Festival ishtirokchilariga viloyat hokimining tashakkurnomalari topshirildi.

Ushbu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevral kuni qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qo'ni farmoniga asosan tashkil qilindi.

